

PARALINGVISTIK VOSITALARNI O'RGANISHNING AHAMIYATI

Tursunova Odinaxon O'ktamjon qizi
Qo'qon DPI, Uzbekistan

M. Rahimova,
Ilmiy rahbar: PhD, Qo'qon DPI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tilshunoslikka yondosh soha-paralingvistika xususida fikr yuritiladi. Paralingvistik vositalarni o'rganishning bir nechta e'tiborli va ahamiyat qaratilishi zarur bo'lgan o'rinlari haqida so'z boradi. Noverbal vositalarning xususiyatlari misollar yordamida tushuntiriladi.

Kalit so'zlar: til, ijtimoiy hodisa, til vositalari, noverbal (nolingvistik) vositalar, pragmatik xususiyat, madaniy aloqa, "semiotic kalit", badiiy asar tarjimai.

Til – kishilar o'rtasida eng muhim aloqa quroli sifatida ijtimoiy mohiyat kasb etadi. U boshqa ijtimoiy hodisalar bilan ham uzviy aloqador. Shu bois ham til xalqning dunyoqarashi, o'tmishi, madaniyati, ruhiyati, adabiyoti kabi masalalarni o'rganuvchi falsafa, tarix, etnografiya, sotsiologiya, psixologiya, etika va adabiyotshunoslik kabi bir qator fanlar bilan bog'liq. Bu bog'liqlik natijasida tilshunoslikda bir qator oraliq yo'nalishlar-mentalingvistika, etnolingvistika, sotsiolingvistika, psixolingvistika, paralingvistika, lingvokultralogiya, lngvopoetika kabi yangi fan sohalari vujudga keldi. Bugungi kunda o'zbek tilshunosligida bu yo'nalishlar bo'yicha bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda.

Til vositalariga funksional tomondan yondashish tamoyili tabiiy ravishda nutq vositalarining qamrovini kengaytirishni talab qiladi. Kishilar o'rtasida aloqa jarayonida lingvistik (verbal) vositalarga nisbatan noverbal(nolingvistik) vositalar, ayniqsa, keng qo'llanadi. So'zlovchining og'zaki nutqi bilan birgalikda qo'llanib, tinglovchilar bilan bevosita aloqa qilishda nutq mazmunini to'ldiradigan, uning jozibadorligi, ta'sirchanligini oshiradigan imo-ishoralarning o'zaro aloqadorligini va farqlarini tadqiq qilish maqsadida til va nutqni sistemali o'rganish lozim bo'lmoqda.

Ana shunday amaliy talab bilan nutqning bu yordamchi vositalarini o'rganuvchi maxsus fan sohasi maydonga keldi. Hozirgi kunda bu yo'nalish "paralingvistika" nomi bilan tilshunoslikda o'rganilib kelinmoqda.



“Paralingvistika” grekcha soʻzdan olingan boʻlib, “para”- yonida, “lingvistika”- tilshunoslik demakdir. Paralingvistika fanda ikki xil maʼnoda ifodalanadi:

1. Lisoniy (verbal) vositalar bilan hamrohlikda ishlatiluvchi nolisoniy (noverbal) vositalarni oʻrganuvchi tilshunoslikning bir boʻlimi;
2. Nutqda, oʻzaro muloqot jarayonida ishlatiluvchi nolisoniy vositalar umumlashmasi. [2, 1].

Paralingvistika nutq vaziyatida yuzaga keladigan jez, mimika va imo-ishora va boshqa fikriy tana harakatlarini oʻrganadi. Paralingvistika aloqa-aralashuvda, nutqiy muomalada muhim vazifa bajaradi. Agar nutq ushbu vositalar koʻmagisiz tinglovchiga ifodalanilsa, fikr taʼsirchanligiga putur yetkaziladi. Aytilmoqchi boʻlgan maʼlumot quruq boʻlib qoladi. Natijada, soʻzlovchi ushbu muloqotdan koʻzlagan maqsadiga yeta olmaydi.

Paralingvistikaning oʻrganilishi oʻziga xos tarixiy bosqichlarga ega. “Bu termin birinchi marta A. Xill tomonidan tavsiya etilgan. Keyinchalik, Treyger bu sohaga oid asar yozib, uning mohiyatini, substansiyasi (bu fanning predmeti, vazifasi, oʻrganiladigan hodisalar mohiyati va boshqalar)ni belgilab berdi.” [3,170]

Keyinchalik bu soha koʻplab chet el olimlari tomonidan taqdiq qilingan. Shuningdek, bir necha oʻzbek tilshunoslari ham paralingvistika yoʻnalishini oʻrganishga qiziqib kelganlar.

Bu sohani oʻrganishning yana bir ahamiyatli jihati shundaki, paralingvistik vositalar ifodalaydigan pragmatik xususiyatlar turli davlatlar oʻrtasidagi aloqalarga ham oʻz taʼsirini koʻrsatadi. Bunga noverbal vositalarning turli tillarda turlicha maʼno ifodalashi sabab boʻladi. Bundan tashqari, oʻzaro madaniy muloqotda chet tilini qisman bilish yoki umuman bilmaslik holatida koʻpincha aloqa toʻsiqlarini, yaʼni suhbatdoshni yaxshi tushunmaslik muammosini bartaraf etish uchun ogʻzaki boʻlmagan aloqa vositalari (birinchi navbatda imo-ishoralar, yuz ifodalari, qoʻl va oyoq harakatlari, ovoz tembri va boshqa gavda harakatlari) qoʻllaniladi. Shu jarayonda aloqa toʻsiqlarini yaratadigan noverbal xulq-atvordagi oʻzaro madaniy tafovutlar koʻp hollarda tushunmovchiliklarga olib keladi. Paralingvistik vositalarning madaniyatlararo munosabatlarga taʼsiri jarayoniga quyidagi voqeani misol qilib keltirish mumkin:

“A. Piz konferensiyalardan birida guvohi boʻlgan qiziqarli sahnaning tavsifini beradi. Amerikalik va yaponiyalik odam gaplashib, xona boʻylab sekin harakat qilishadi. Amerikalik rasmiy suhbat davomida oraliq masofa 90 sm boʻlishi kerak, deb hisoblaydi; shuning uchun suhbat davomida u har doim bir qadam orqaga chekingan, meʼyoriy masofa 20-25 sm.ni tashkil qilgan yaponiyalik uchun esa



amerikalikning saqlagan masofasi uzoq sanalgan, shu sababdan ham u doimiy ravishda amerikalikka yaqinlashavergan.”[1, 8]

Yuqoridagi vaziyat aynan ikki millat- yapon va amerikalik kishilarning noverbal vositalari bilan bog'liq. Matndan ko'rinib turibdiki, yaponlar uchun suhbatdosh bilan yaqin masofada turib muloqot qilish hurmat belgisi bo'lsa, amerikalik so'zlovchilar uchun esa uzoqdan turib so'zlashish hurmat belgisi sanaladi. Shu jarayonda bu ikki suhbatdosh bir-birini noto'g'ri tushunganda ikki davlat o'rtasida siyosiy tushunmovchilik kelib chiqqan bo'lar edi. Bundan tashqari, paralingvistik vositalar turli xalqlarda turlicha ma'no ifodalashi bois kishilarni noqulay vaziyatga tushirib qo'yishi mumkin. Masalan, mamlakatimizda bosh barmoq yuqoriga ko'tarilsa, “zo'r” ma'nosini anglatadi. Yunonlarning vatani Gretsiyada esa ushbu qo'l harakati “ovozingni o'chir” degan ma'noni ifodalaydi. Gretsiyaga brogan o'zbek fuqarosi ushbu belgini u yerda ham qo'llasa o'zini noqulay sharoitga tushirib qo'yishi, shubhasiz. Shunday ekan, agar adresat imo-ishoralarning aniq ma'nosini bilmasa, chet elliklar bilan muloqot qilishda ularni butunlay chiqarib tashlashi zarur.

Paralingvistik vositalarning yana bir ahamiyatli jihati ular muloqot ishtirokchilari uchun “semiotic kalit” vazifasini o'taydi. “German Vamberi arab, fors, o'zbek tillarinigina emas, balki bu xalqlarning madaniyati, urf odatlarini ham puxta biluvchi mashhur sharqshunos olim edi. Shuning uchun u salla o'rab, mulla qiyofasida Eron va O'rta Osiyo xalqlari orasiga kirib keladi. Uning muomalasidan, gaplaridan xorijiy, g'ayridin ekani butunlay sezilmaydi. Islomning, Sharq xalqlari tarixi va madaniyatining bilimdoni sifatida aholi o'rtasida hurmat va e'tibor qozonadi. Ammo bir o'tirishda juda yoqimli musiqadan ta'sirlanib, beixtiyor kuy maromiga qarab oyog'ini silkita boshlaydi. Bu harakati esa davra ahliga uning xorijiy ekanini oshkor qilib qo'yadi. Chunki Sharq xalqlari orasida kuy, ashuladan rohatlanish belgisi oyoq harakati bilan emas, balki boshning gorizontol holatda asta-sekin tebranishi bilan ifodalanardi.”[4, 169]

Agar Vamberi Sharq xalqlarining noverbal harakatini bilganida, davra ahli uni yevropalik ekanini bilmas edilar yoki jamoa a'zolari xorijiy xalqlarning ushbu harakatini bilgani uchun tezda uni tanib olishdi.

Adabiy aloqalar jarayonida ma'lum bir asarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish uchun ham tarjimon faqat tarjima qilmoqchi bo'lgan millatning lisoniy vositalarini bilish bilan chegaralanmay, o'sha xalqning o'ziga xos muomala madaniyati, imo-ishoralari bilishi ham zarurdir. Aks holda tarjimon asarning badiiy qimmatiga putur yetkazgan bo'ladi.



“Xat yozib tur,-dedi dadam. Bosh irg’ab ko’chaga chiqdim(O’.Umarbekov).

Yuqoridagi parchada “bosh irg’ab konstruksiyasi o’zbek xalqi orasida rozilik, tasdiq ma’nosini ifodalovchi imo-ishorani aks ettiradi. Agar yuqoridagi matn bolgar tiliga mazkur xalqlar o’rtasidagi imo-ishora tafovuti hisobga olinmasdan so’zma-so’z tarjima qilinsa, tarjimada butunlay teskari ma’noni- xat yozib turmaslik ma’nosini ifodalaydi. Chunki bolgarlarda yuqoridagi imo-ishora inkor ma’nosini bildiradi. Shuning uchun tarjimada bu so’zni bolgarlarda ham xuddi shunday ma’noni bildiruvchi imo-ishora ifodalaydigan ishora fe’liga almashtirishga to’g’ri keladi.”[4,170]

Yuqoridagi matndan ma’lum bo’ladiki, paralingvistik vositalar ikki xalqda mutlaqo zid ma’noda-biri tasdiq, ikkinchisi inkor ma’noda ham qo’llanishi mumkin ekan. Yuqoridagi aytilganlardan ayon bo’ldiki, paralingvistik vositalar ham ma’lum bir axborotni tashishda lingvistik vositalarga yordam beradi. Hatto ba’zi o’rinlarda ularning vazifasini ham bajaradi. Demak, ma’lum bir tilni o’rganayotganda faqat shu tilning verbal vositalarini emas, noverbal vositalarini hamda madaniyatini ham o’rganish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, paralingvistik vositalar nutqni jonlantiruvchi, uning samaradorligini oshiruvchi omillardan biri sifatida o’rganilishi zarur. Millatlararo tinchlikni saqlashga qisman bo’lsa-da yordam berish uchun ham paralingvistika sohasini chuqurroq o’rganish va ommalashtirish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.HASANOVA GULRUX. NUTQ JARAYONIDA NOVERBAL VOSITALARNING PRAGMATIC XUSUSIYATLARI. O’ZBEKISTON: TIL VA MADANIYAT. 2021.

1. JURAYEVA SHOHSANAM ALISHERJON QIZI. PARALINGVISTIK VOSITALARNING VERBAL TASVIRI. MAQOLA.-4B.

2. NURMONOV N.A. O’ZBEK TILINING PARALINGVISTIK VOSITALARI.-ANDIJON. 1980.

3. NURMONOV N.A. TANLANGAN ASARLAR. 3 JILDLIK. TOSHKENT. 2001.

4. Ergashova, M., &Toshpulatov, B. T. (2023). TRANSFER OF THE MEANING AND THEIR REFERENCE TO PRESUPPOSITION. *Gospodarka i Innowacje.*, 36, 556-559.

5. Ergashova, M. (2023). LOCALIZATION RELATIONSHIP EXPRESSION THROUGH PREPOSITIONS. *Gospodarka i Innowacje.*, 36, 560-563.



6. Mahmudova, N. (2022). THE ISSUE OF CREATING AN EXPLANATORY DICTIONARY OF TELEPHONE COMMUNICATION NETWORK TERMS AND REGULATING TERMS. *IJSSIR, Vol. 11, No. 9*.
7. Mahmudova, N. T., & Tadjiyev, X. X. (2023). Thematic groups of telecommunication terms in the Uzbek language. *Gospodarka i Innowacje.*, 36, 564-569.
8. Rahimova, M., & Nazirova, M. (2023). ERKIN VOHIDOV IJODIDA ANTONIMALAR. *Conferencea*, 85-88.
9. Rahimova, M. (2023). O'ZBEK TILIDA LEKSIK NOMEMALAR. *Scientific journal of the Fergana State University*, (1), 164-164.
10. Raxmatullayeva, D. (2023). O'ZBEK TILIDAGI" ILM-MA'RIFAT" SEMALI LUG'AVIY BIRLIKLAR PARADIGMASI. *Sciencewebacademicpaperscollection*.
11. Shukhratovna, R. D., & Mushtariybonu, R. (2022). RESEARCH ISSUES OF LEXICAL UNITS IN THE UZBEK LANGUAGE. *GalaxyInternationalInterdisciplinaryResearchJournal*, 10(12), 1847-1851.
12. Ҳасанова, Д. О., & Эргашева, Д. Т. Қ. (2021). ШАХС СОЦИАЛ БЕЛГИЛАРИНИ ИФОДАЛАШДА ЛИСОНИЙ ВА НОЛИСОНИЙ ВОСИТАЛАР АМКОРЛИГИ. *Academicresearchineducationalsciences*, 2(CSPI conference 1), 899-903.

